O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchiligini boshqarishning hozirgi zamon muammolari.....	875
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions	879
Ergasheva Malikakhon , Independent researcher	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida.....	884
Amanov Otabek Amankulovich	
Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida.....	888
Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li , tayanch doktorant	
Nodavlat notijoart tashkilotlarida maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish.....	893
Ne'matov Oybek Ismatullayevich , PhD	
Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish	897
Saidaxmedova Nodira Ixamovna , DsC	
Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования.....	902
Bokhodir Isroilov , Doctor of Economics, Boburshokh Ibragimov , PhD	
Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili.....	909
Raximova Shaxlo Rajapboyevna , mustaqil tadqiqotchi	
Derivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati.....	915
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna , PhD	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish.....	922
Maxmudov Anvarjon Maxmudovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili.....	930
Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich , dotsent	
Семья и ее роль в воспитании молодежи.....	935
Зайналов Жахонгир Расулович , профессор, Бердикулов Журабек , ассистент	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, audi va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar.....	938
Nosirov Ilhom Abbosovich , i.f.d., Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich , mustaqil izlanuvchi	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
Холмирзаева Феруза Абдуллаевна	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна.....	949
Холбеков Расул Олимович , доктор экономических наук, профессор	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari	956
Axmedova Nafisa Amriddin qizi	
Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish	962
Ruziyeva Shaxlo Raupovna	



Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari	968
Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant	
Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar	972
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish	978
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida)	983
Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari	1000
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlarini	1005
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati	1010
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili	1014
Hakimjon Hakimov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1019
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish	1024
Ilyasova Barno Axmadovna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili	1028
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modelashtirish	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash:	
2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar	1046
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari	1052
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari	1058
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi	1064
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы	1070
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции	1075
Бабаева Гузаль Яшиновна , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili	1081
Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni	1086
Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi	1091
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uni amal qilish mexanizmi	1095
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	



MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT TARMOG'INING TUTGAN O'RNI

Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy sharoitlarda sanoat tarmog'ining mohiyati, o'ziga xos tomonlari va milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni amaliy materiallar yordamida o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizda qabul qilingan strategiyaga va dasturlar doirasida sanoat tarmog'ini rivojlantirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, sanoat, sanoat salohiyati, sanoat korxonalari, ishlab chiqarish korxonalari, barqaror sanoatlashtirish, tarmoqlararo kooperatsiya.

Abstract: The article, using practical materials, examines the nature of the production network in modern conditions, its specifics and role in the national economy. The main directions of industrial development within the framework of the strategy and programs adopted in our country have also been studied.

Key words: national economy, industry, industrial potential, industrial enterprises, manufacturing enterprises, sustainable industrialization, intersectoral cooperation.

Аннотация: В статье с помощью практических материалов рассматривается природа производственной сети в современных условиях, ее специфика и роль в национальной экономике. Также изучены основные направления развития промышленности в рамках стратегии и программ, принятых в нашей стране.

Ключевые слова: национальная экономика, промышленность, промышленный потенциал, промышленные предприятия, производственные предприятия, устойчивая индустриализация, межотраслевое сотрудничество.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqamli iqtisodiyotni shakllanishi sharoitida mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, tarmoqlar va sohalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va boshqaruv samaradorligini oshirish, korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlari, kompaniya va firmalarda korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish, ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, korxonalar amaliyotida korporativ boshqaruv standartlari va kodekslarini ishlab chiqish, davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2023-yil 11-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son Farmoni¹ asosida qabul qilingan mazkur strategiyada 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsad o'z aksini topgan bo'lib, mazkur hujjat orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

Xususan, sanoat sohasini barqaror rivojlantirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, sanoatning "drayver" sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish kabi vazifalar belgilangan^[1].

Sanoat - moddiy ishlab chiqarishning eng yirik, yetakchi tarmog'idir. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi; mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi; yer osti boyliklari qazib olish amalga oshiriladi; mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi, keng iste'mol mollari tayyorlanadi va hokazolar.

1 <https://www.norma.uz>



Sanoat milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq. Ishlab chiqarish kuchlari

va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli, uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi. Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilimi va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan K. Shiborsh, Yu. Rodionov, R. Porter, D. Deveryuks, B. Roberts, O. Lenko, R. Nureyev, O. Dedovlar hamda mahalliy olimlardan Yo. Abdullayev, A. Abduhamidov, A. Abdugaffarov, M. Narziqulov, N. Mardiyev, Z. Siddiqov, U. Muxitdinov, A. Artikov, X. Ishbutayeva, Sh. Nizomova, E. Maxmudov, M. Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo'lishgan.


K. Shiborsh o'zining sanoat korxonalarini integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini takomillashtirish yo'nalishida, avvalo, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, mahsulotni taqsimlash va sotish hamda shu orqali foydaning oshishini, investitsiyalardan olinadigan samarani ta'minlash va kompaniyalar raqobat mavqeini kuchaytirish zarurati bilan bog'liq bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining nisbatan barqarorlashuvi sharoitida ishlab chiqarishni boshqarish va uni takomillashtirish darajasi bilan belgilanishi ko'rsatib bergan ^[2]. O. Lenko sanoat korxonasini boshqarish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyatini baholash bo'yicha bir qator taklif tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida korxonalarni boshqarish - tizimli dasturiy ta'minot va kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish asosida boshqarish vazifalarini hal etish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va axborotni muhofaza qilish, bilim usullari va vositalari majmuini tashkil etishdan iboratdir. Boshqaruvda axborot texnologiyalari avtomatlashtirilgan tarzda tez-tez ishlatiladi, ya'ni texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda boshqarish texnologiyalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi ^[3]. O. Dedov sanoat korxonalar boshqaruv tizimini shakllantirish umumiy holda boshqaruv usullari tizimlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Zaruriy natijaga erishish maqsadida tashkiliy tizim faoliyatini amalga oshirish sanoat boshqaruv tizimini ushbu tizimga ta'sir etishi orqali bajarilishi hamda sanoat korxonasining iqtisodiy moslashuvini boshqarish usullari bo'yicha yondashuvlarini ko'rsatib bergan ^[4].

Mahalliy olimlardan A. Abdugaffarov, N. Mardiyev, Z. Siddiqovlar moliyaviy jarayonlarni baholash modellari va amaliy masalalarni yechish usullariga bag'ishlangan bo'lib, moliyaviy jarayonlarini tahlil qilishning asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy jarayonlarini ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga baholash modellari orqali aniq baho berish, mablag' va manbalarning joylanishini tekshirish, ularni to'g'ri yo'nalishda ishlatilayotganini baholash modellari orqali aniqlash, moliyaviy jarayonlar qanday amalga oshirilayotganini baholash metodlari orqali aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berishni aniqlagan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar milliy iqtisodiyotida yengil sanoat korxonalarining tutgan o'rne, yengil sanoatning iqtisodiy va strategik rejalashtirish, yengil sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kengaytirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalarni asoslab bergan ^[5].

A. Artikov "O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari"ga ^[6], M. Narziqulov "Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilganligi"ga ^[7], E. Maxmudov "Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari birinchi navbatda budjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish"ga ^[8] bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

2022-yil yakunlari bo'yicha respublikada 98,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 16,8 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,0 foizi) Toshkent shahriga, 11,1 mingtasi (11,2 foizi) Farg'ona viloyatiga, 10,0 mingtasi (10,1 foizi) Toshkent viloyatiga, 9,9 mingtasi (10,0 foizi) Andijon viloyatiga va 8,9 mingtasi (9,0 foizi) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda.



1-rasm: O'zbekistondagi sanoat korxonalari soni, yil boshiga [9]

Qayta ishlab chiqarish tarmog'ining yuqori sur'atlarda o'sishi, barqaror ish o'rinlari tashkil etilishi va aholi bandligini ta'minlashga tarmoqning ko'p mehnat talab qiladigan oziq-ovqat sanoati (2019-2021-yillarda 27 foizga), to'qimachilik va tikuvchilik sanoati (45 foizga) ning barqaror o'sishi yordam berdi. Kimyo (16 foiz), metallurgiya (24 foiz) kabi boshqa bazaviy tarmoqlar barqaror rivojlandi. Ushbu davrda mashinasozlik sanoatida (30 foiz) sezilarli o'sishga erishildi. Bu kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar (3,4 baravar), elektr jihozlari (10,5 foizga), shuningdek, avtotransport vositalari (13 foizga) ishlab chiqarishni faol rivojlantirish hisobiga sodir bo'ldi.

O'zbekiston sanoat salohiyati bilan bir qatorda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar eksporti hajmini oshirish hisobiga eksport salohiyati oshirilmoqda. 2019-yilda O'zbekiston eksportidagi mineral yoqilg'i va paxtaning umumiy ulushi 26 foizdan ortiq bo'lgan bo'lsa, 2021-yil bu ko'rsatkich 17 foizga yetdi.

Eksportni qayta ishlash darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlarga yo'naltirish siyosati olib borilmoqda. Natijada 2019-2021-yillarda tayyor to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak eksporti 2,3 barobar, farmatsevtika mahsulotlari - qariyb 2 barobar, elektrotexnika mashinalari va uskunolari - 1,9 barobar oshdi. Xuddi shunday ijobiy o'zgarishlar yuqori qo'shilgan qiymatga ega boshqa qator turdagi sanoat tovarlari eksportida ham kuzatildi.


O'sishning bunday muhim ko'rsatkichlariga yangi korxonalar qurish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash, sanoatning xomashyo bazasini rivojlantirish va sanoat xomashyosini qayta ishlashni chuqurlashtirishni nazarda tutuvchi tarmoq va hududiy rivojlanish strategiyasi va dasturlarining o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishi ham yordam berdi. Sanoatdagi salmoqli investitsiya loyihalari qatorida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston GTL, Toshkent metallurgiya kombinati, Navoiy va Samarqand viloyatlarida qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanadigan fotoelektr stansiyalari, To'raqo'rg'on IES, to'qimachilik, tikuvchilik, neft-kimyo, sement sanoati va boshqa bir qator loyihalar ishga tushirilganini alohida qayd etish lozim. Eksport hajmining o'sishi va uning tarkibiy o'zgarishlariga tashqi bozorlarga sotishga mo'ljallangan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari ta'sir ko'rsatdi.

2022-yilda respublika korxonalari tomonidan 551,1 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,2 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning sanoat sektorida uning barqaror rivojlanishi uchun xavf tug'diruvchi qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha yetarli darajada texnologik zanjir bog'lanmaganligi tufayli xomashyoni qayta ishlash darajasi pastligicha qolmoqda.

Tarmoqlararo kooperatsiyaning past darajasi sanoatni rivojlantirish uchun ichki resurslarni maksimal darajada jalb qilishga imkon bermayapti. Ushbu holat import qilinadigan tovarlarni iste'mol qilishning darajasi keskin o'sishiga olib keladi.



2-rasm: O'zbekistonda sanoatning ko'rsatkichlari ^[9]

Keyingi qadamlar: 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar tashkil etish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar va loyihalar ko'zda tutilgan:

- klasterlar yaratish, mis, tabiiy gaz va boshqa xomashyolarni qayta ishlashni chuqurlashtirish;
- avtomobilsozlik sohasida kooperatsiyani rivojlantirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarishni ikki barobarga oshirish;
- to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga oshirish;
- charm-poyabzal sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish;
- farmatsevtika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish;
- elektrotexnika sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarishni ikki barobar oshirish.

Bundan tashqari, tayyor mahsulotlarni Yevropa bozorlariga eksport qilishni rag'batlantirish, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini va mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini amalga oshirish hamda kadrlar tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish nazarda tutilgan.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlarimizga xulosa qilib ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda barqaror sanoatlashtirishni ta'minlash uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan qo'shimcha tadbirlar quyidagilardan iborat:

- energetika, avtomobil transporti va boshqa sanoat infratuzilmalarni kompleks rivojlantirish;
- mahalliy muhandislik-tadqiqot va ishlanmalar bazasini rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va kengaytirish, sanoat tarmoqlarining texnologik salohiyatini yuksaltirishda har tomonlama yordam ko'rsatish;
- sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda havfsiz ekologik texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlaridan kengroq foydalanish uchun zarur investitsiyalar hajmini ta'minlash.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishning yaxlit tizimini joriy etish, investitsiyalarni faol jalb etish, xaridorgir mahsulotlarning keng assortimentini o'zlashtirish, sanoat kooperatsiyasini ken-



gaytirish va respublika eksport salohiyatini oshirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi ^[10].

O'rta va yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlarining umumiy hajmida qo'shilgan qiymat ulushini oshirish maqsadida hududlarda yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirgan holda innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparklarini tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
2. Щиборщ К.В. Интегрированная система управления промышленных предприятий России. // Менеджмент в России и за рубежом. - №4. - 2019.
3. Ленько О.В. Оценка значимости информационно-коммуникационных технологий для управления промышленным предприятием. // Проблемы региональной экономики. —2005. —№ 3-4.
4. Дедов О.А. Управление экономической адаптацией промышленного предприятия. – Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2022.
5. Абдугаффаров А., Мардиев Н., Сиддиқов З. Молиявий жараёнларни баҳолаш моделлари ва амалий масалаларни ёчиш усуллари. Монография. – Т.: "Fan ziyosi" нашриёти, 2021. – 132 б.
6. А.Ортиков. Саноат иқтисоди. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2009. 236 б.
7. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1У-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. – Ташкент. – 2012. – С. 8.
8. Е.Х.Махмудов, А.Ортиков, F.Karimov. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini. – Hamkor. – 2010-yil 7 fevral.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida. <https://stat.uz/uz>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi PQ-99-son "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5836411>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.